

## **WHITE SHIP... WHITE SHIP**

**Matkarimova Feruzabonu**

Student of the Uzbek State University of World Languages

**Annotation;** Chingiz Aitmatov; - People's Writer of Kyrgyzstan (1968). Academician of the Kyrgyz Academy of Sciences (1974). He graduated from the Kyrgyz Agricultural Institute (1953). From 1956 to 1958 he was a student of the Higher Literature Course of the Writers' Union in Moscow.

**Keywords;** "On the shores of Bay-Damtol" (1955), "Yuzma-yuz" (1957), "Jamila" (1958), "Sarvqomat dilbarim" (1961), "Botakoz", "Birinchi muallim" (1962), "Momo yer", "The Way of the Straw" (1963), "Goodbye, O Gulsari" (1966), "The White Ship" (1970), "The Ola-Par Running by the Sea" (1977), "The Day of the Century" (1980), "Doomsday" (1986), The Stamp of Cassandra (1990).

## **OQ KEMA...OPPOQ KEMA**

**Matkarimova Feruzabonu**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

**Annotatsiya;** Chingiz Aytmatov; – Qirg'iziston xalq yozuvchisi (1968). Qirg'iziston Fanlar Akademiyasi akademik (1974). Qirg'iziston qishloq xo'jaligi institutini tamomlagan (1953). 1956 – 58 yillari Moskvadagi yozuvchilar uyushmasi Oliy adabiyot kursi tinglovchisi.

**Kalit so'zlar;** "Bay-damtol sohillarida" (1955), "Yuzma-yuz" (1957) "Jamila" (1958), "Sarvqomat dilbarim" (1961), "Bo'tako'z", "Birinchi muallim" (1962), "Momo yer", "Somon yo'li" (1963), "Alvido, ey Gulsari" (1966), "Oq kema" (1970), "Dengiz yoqalab chopayotgan ola-par" (1977) "Asrga tatigulik kun" (1980), "Qiyomat" (1986), "Kassandra tamg'asi" (1990).

**"Qilding-u oyda xirom, ham yerda qon to'kdining harom,  
Ushbu holingdan mudom xandon o'zing, giryon o'zing..."**

(Erkin Vohidov)

O'zbek xalqiga yaxshi tanish bo'lган qardosh qirg'iz vakili Chingiz Aytmatov haqida so'z ketganda, beixtiyor kitobxon ko'z oldida oq kemada orzular sari suzib ketayotgan, yomonlikni farqlay olmaydigan, beozorgina bolakay yoki muhabbat haqidagi eng go'zal qissa, - deya ta'riflangan **Jamila va Doniyor** gavdalaniadi. Adibning o'zi bolalik yillarini quyidagicha eslaydi: "Bizning ovulimizda yeti oilasini bilish odatiga qat'iy rioya qilinardi. Shu sababdan o'zimizdan oldin o'tgan yeti ajdodimizni bilish muqaddas burch ekanligi bolalikdanoq ongimizga singdirilardi. Odatda, ovul qariyalari bu borada o'g'il bolalarni; Qani, aytchi, botir, kimlarning avlodidansan? Otang kim? Otangning ota-bobolari kimlar? Odamalar u haqida nima deydi?" – kabi savollar bilan sinashar edi. Agar shu savollarga javob berolmasa, uning ota-onasi qattiq izza qilinardi. Aytmat bobomni ko'rмаганман. U 1918 – 1920 – yillarda vofot etgan. Men esa 1928- yil 12-dekabrda tug'ilганман. Bizning Shakar ovulimiz chekkasidagi Qurqurov daryosi qirg'og'ida eski, yerga botib borayotgan tegirmon toshi bor. Yillar o'tgani sayin u ko'proq yemirilib, yerga chuqurroq singib bormoqda. Ana shu yerda bibomning tegirmoni bo'lган. Bu tegirmon bir yilcha ishlagan xolos, keyin yonib ketgan. Shundan keyin inqirozga uchragan bobom 12- yoshli o'g'li To'raqul – mening otam bilan u yerdan ketib, temiryo'l tunnellari qurulishida ishlagan. Shu yerdan mening otam rus bojxona ma'muriyati yordamida Avliyoota shahridagi rus – tuzem maktabiga o'qishga kirgan. Keyin ikki marotaba Moskvada o'qidi. Qirg'izistonda rahbarlik lavozimlarida ishladi. Onam – Nagima Hamzayevna o'qimishli, o'z davrining ilg'or ayollaridan bo'lган. Bu narsa esa meni rus madaniyati, tili va adabiyotiga oshno qilish imkonini bergen.

Buvim esa har yozda meni tog'ga olib ketardi. U ovuldagi eng aqlli va hurmatga sazovor ayollardan edi. U men uchun ertak, doston, qadimiy qo'shiqchilarning bitmas-tuganmas xazinasi edi. Ehtimol, o'shanda buvim o'zi sezmagan holda o'z tilimni sevishga, hurmat qilishga o'rgatgandir. Bunga hech qanday shubham yo'q.

Buvim mening bolaligimni turli ertak, qo'shiq, dostonlar bilan bezagan. U meni turli davralarga, to'y-hashamlarga o'zi bilan birga olib borar edi. Menga tez-tez o'zining tushlari haqida gapirib berardi. Bu tushlar shunchalik qiziq ediki, u mudrab qolgan vaqtida ham men uni uyg'otib, tushning davomini aytib berishini so'rardim.

Buvim ko'p o'tmay vafot etdi. Endi mnei shaharda, o'z uyimizda yashay boshladim. Keyin maktabga bordim. Ikki yil o'tgach, sevimli ovulimga qaytib bordim. Bu safargi kelishim uzoq va qiyinchilik biln kechdi. 1937- yil mening otam qatag'on qilindi. Bizning oila ovulga ko'chib keldi. Aynan shu vaqtida men uchun qiyinchiliklarga to'la asl hayot maktabi boshlandi.

Olamizda to'rt farzand, men eng kattasi edim. Sharoit og'ir edi, lekin butun Shakar ahli; qo'shnilar ham, ilgari bizga tanish bo'limgan odamlar ham bizni tashlab qo'yishmadi. Ular imkonlari yetgancha biz bilan non, yoqilg'I, kartoshka va hatto issiq kiyimlarni ham bo'lishishardi. Men juda erta ishlay boshladim; 10- yoshimda dehqon mehnating zahm,atini tatidim. Bir yildan so'ng biz rayon markaziga – Kirov nomidagi rus qishlog'iga ko'chib o'tdik. Onam hisobchi bo'lib ishga kirdi. Men rus maktabiga qatnay boshladim. Turmushimiz endi izga tushayotgan kezda urush boshlanib qoldi. 1942 – yildan o'qisdhni tashlashga to'g'ri keldi. Chunki, urush vaqtি, onamning hammamizni o'qitishga imkon yo'q edi. Men yana Shakar ovuliga qaytib keldim. Ovlurush mashaqqatlari iskanjasida edi. Boshqa odam topilmagach, o'z tengqurlarim ichida savodli bo'lganim uchun meni qishloq kengashiga kotib etib tayinlashdi. O'shanda 14 – yoshda edim. Urush yillari soliq agentligi, traktorchilar brigadasi hisobchisi bo'lib ishladim.

1946 – yil 8- sinfni bitirgach, Jambul zoovettexnikumiga o'qishga kirdim. U yerni tamomlagach a'lochi o'quvchi sifatida Qирг'изистон qishloq xo'jaligi institutiga o'qishga qabul qilindim va bu yerni ham a'lo baholar bilan bitirdim. Yoshligimda badiiy adabiyotga oshno bo'lgan edim. Shu sabab 1956 – yil Moskvadagi Oliy adabiyot kursiga o'qishga kirdim.

Hech kim o'z- o'zidan yozuvchi bo'lib qolmaydi; yillar sabog'i, qilingan mehnati, badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqish va e'tiqod orqali bunga erishish mumkin.

Ilk hikoyalari 1950-yillarda bosingan. **"Bay-damtol sohillarida"** (1955), **"Yuzma-yuz"** (1957) asarlari o'tkir syujet, kuchli ichki ruhiy ziddiyatlarga boy. **"Jamila"** (1958), **"Sarvqomat dilbarim"** (1961), **"Bo'tako'z"**, **"Birinchi muallim"** (1962), **"Momo yer"**, **"Somon yo'li"** (1963), **"Alvido, ey Gulsari"** (1966) kabi qissalarida muhabbat mavzusi katta ehtiros bilan tarannum etilgan. **"Tog' va cho'l qissalari"** turkumiga kirgan asarlari yuksak baholandi. **"Oq kema"** (1970) qissasida insoniy go'zallik, ezbilik va hayot ziddiyatlari, ekologiya muammolari teran tadqiq etiladi. **"Dengiz yoqalab chopayotgan olapar"** (1977) qissasida muhim ma'naviy masalalar, sho'ro davridagi hayotning mash'um manzaralari o'z ifodasini topgan. **"Asrga tativlik kun"** (1980), **"Qiyomat"** (1986), **"Kassandra tamg'asi"** (1990) romanlarida zamonamizning umuminsoniy tomonlari, ona sayyoramizning taqdiri, kuchli falsafiy, axloqiy va ijtimoiy muammolar ko'tarilgan. O'tmishini unutgan, hissiz, hamma narsaga loqayd, itoat-u, buyruqni bajarishdan boshqa narsani bilmaydigan, tuyg'u, noziq hissiyotlari so'ngan manqurt obrazni tasvirlangan. Ma'naviyatga bag'ishlangan asari **"Cho'qqida qolgan ovchining ohi zori"** (M. Shoxonov bilan hamkorlikda) ijodining muhim qirralaridan biri bo'ldi, prozasida ruhiyat tahlili an'anaviy folklor, mifologiya, obrazlilik bilan uyg'unlashib ketadi. Unda masal, ramziylikka moyillik sezilarli darajadadir.

**"Иностранная литература"** (Moskva) jurnaliga muharrir (1980 – 90), 1990-yildan sobiq SSSRning,

so'ng Rossiya Federatsiyasining, 1991-yildan Qирг'изистон Respublikasining **Lyuksemburg**, **Belgiyadagi** elchisi. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasi Prezidenti (1995). Asarlari jahoning 154 tiliga tarjima qilinib, 20 mln.dan ortiq nusxada chop etilgan (1999). **"Sarvqomat dilbarim"**, **"Bo'tako'z"**, **"Birinchi muallim"**, **"Jamila"**, **"Alvido, ey Gulsari"** va boshqa asarlari ekran yuzini ko'rgan. **"Momo yer"** asariga I.Akbarov musiqa yozgan. O'zbekiston Respublikasining **"Do'stlik"** (1995), **"Buyuk xizmatlari uchun"** (1998) ordenlari bilan mukofotlangan. Qирг'изистон Respublikasida xalqaro Chingiz Aytmatov nomidagi **"Oltin medal"** mukofoti ta'sis etilgan (1999).

**Oq kema asari haqida;** Bola qalbi naqadar beg‘ubor bo‘ladi. Issiqko‘l bo‘yida yashovchi 7 yoshli yetim bolaning beg‘ubor qalbi, o‘z olami, sodda dunyoqarashi va qanchalik haqiqatgo‘yligi haqida hikoya qiladi. Bola o‘z olamida yashardi. U bobosining samimiyligini ertaklarigagina ishonardi. Bobosi aytib bergan Shoxdor ona bug‘u haqidagi ertakni o‘z hayoti bilan bog‘liq ravishda tasavvur etardi. Hayot qizig‘-a?! Kimlardir tirnoqqa zor, yana kimlardir farzand deb atalmish ne‘matning qadriga yetmay, undan voz kechadilar. Eng qizig‘i- bu qarama-qarshilik asarda yonma-yon tasvirlangan. Boboning to‘ng‘ich qizi necha yillardan buyon farzandsizlikdan aziyat chekib kelayotgan bo‘lsa, uning kichik qizi o‘z nuridiydasidan voz kechib ketib qolgan. Bokey xola har safar bolani ko‘rganda, u bilan gaplashganda qanday holatni boshidan o‘tkazgani, ko‘nglida qanday iztiroblar bo‘lgani, oz bo‘lsa-da ma‘lum. Asardagi bola obrazi xolisona va samimiyligini tasvirlangan. Hatto, bolaning ismi ham keltirilmagan bo‘lsa-da, biz uning qanchalar sodda va muloyim bo‘lganligini bilishimiz mumkin. Nega u boshqa bolalar singari sho‘x, yerga ursa ko‘kka sapchiydigan bola bo‘lmagan, degan savol tug‘ilishi mumkin.

Biz bunga bir qancha sabablarni keltirib o‘tamiz. Birinchidan bola ota-onasiz yolg‘iz edi. Uning Mo‘min boboga nisbatangina muhabbatি bor. Uning do‘satlari til-u zabonsiz tosh va gullar, suhbatdoshlari durbin-u portfel. Sirlarini ularga aytar, bu buyumlarni atrofidagi insonlardan yaxshi deb bilardi. Shuning uchun ham u o‘ta sodda va yolg‘iz bo‘lgan. Ikkinchidan, bola yashaydigan joyda bor yo‘g‘i uchtagina oila bor va uning tengdoshi yo‘q edi. Lekin asar voqealari bu munosabatni oxirigacha olib borishga yo‘l qo‘ymadi... Asardagi Mo‘min bobo obrazini biz "**ikki o‘t orasida qolgan qahramon**" deyishimiz mumkin. U nabirasini butun borlig‘i bilan yaxshi ko‘radi, ardoqlaydi. Shu bilan birga qizining ham baxtsiz bo‘lib qolishidan qo‘rqadi, azob chekishini xohlamaydi. Shuning uchun ham u bug‘uni o‘ldirishga majbur bo‘ladi. Balki shu bilan qizining baxtsizligiga barham topmoqchi bo‘lgandir... Asarning eng ta‘sirli nuqtasi bu bug‘uning nobud bo‘lgani va bolaning bu olamdagи hech kimga ishonchi qolmagani edi. Uning oxirgi umidi ham bu mudhish va razil voqealari qatorida turgani, ya‘ni, bobosining ham bu ishda qo‘li borligi bolani bu muhitni tark etishga undaydi. Bola qaysidir ma‘noda orzusiga erishmoqchi bo‘ladi. U baliqqa aylanib qolmoqchi, bu chirkin manzaradan uzoqqa, o‘zining oq kemasi yoniga suzib ketmoqchi bo‘ladi. Lekin afsuski hayot bunday beg‘ubor bolaning orzusini ro‘yobga chiqarishga ojizlik qildi. Uni abadiy yo‘qlikka olib ketdi...

Asarda insoniyatning kelajagi tabiat bilan bog‘liq holda ramziy usulda tasvirlangan. Ya‘ni , bola va tabiat hamohang , agar tabiatga munosabat shu tarzda davom etsa, tabiatning ham kelajagi xavf ostida qoladi va bola kabi nobud bo‘ladi. Asardan shuni xulosa qilish mumkinki, har qanday narsaga, u kim bo‘lishidan qat‘iy nazar, jonlimi, jonsizmi, bolami , kattami - MEHR KERAK! Mehr- muhabbat, samimiylik bo‘lmagan joyda orzular ham ularning ro‘yobi ham bo‘lmaydi va fofia yuz beradi ... "**asardan\_parcha**". U shunday baliqqa aylanib qolishni orzu qilardiki, baliqning hamma joyi: tanasi, dumi, suzgich qanotlari, tangachalari unga o‘tsa-yu, faqat ingichka bo‘yinli, shalpangquloqli, tirlangan burunli boshi o‘zida qolsa bas. Ko‘zlar ham o‘zida qolsin. Lekin hozirgiday emas. Chin baliqlarday ko‘radigan bo‘lishsin” . Balki bir tomonidan bolakayning orzulari suvdagi pufakchalar orqali o‘z ifodasini topgani ham yaxshilikkadir, har holda Tangri taolo o‘z bandalariga hamisha afzalini beradi, ular istaganidan ortiqrog‘ini beradi! Adib asarda faqatgina insoniy tuyg‘ular-u, orzu-umidlar haqida so‘zlamagan. Asarda insoniyatdagi xatoliklar (albatta bular kimlar uchundir to‘g‘rilikdir), yovuzliklar juda qattiq tanqid ostiga olingan. Masalan, hech kimning haqi yo‘q edi bir murg‘ak bolakayni o‘zida bor bo‘lgan jamiki narsalardan, ezguliklardan qo‘l yuvishiga majburlashga, hech kimning haqi yo‘q edi tabiatga ozor berishga, hech kimning haqi yo‘q edi dunyoda yana bir yetim sonini oshirishga... Bularning adog‘i yo‘q. Bizni toboro kirlashib dog‘lashib borayotgan bu dunyoqarashimizni yana avvalgi o’sha bolalik onlarimizdagi pok va samimiyligiga faqat sayr etishga yordam beradi xolos! Faqat shu! Boshqa narsaga va‘da berilmagan! Izlamang! Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, asar juda pok tuyg‘ularni madh etadi, illatlarni qoralaydi, la’natlaydi. Bu asar hotiralarimizdagina qolgan juda qadron armonlarimizni yodga solishga qodir. Bu asar sizning qutqaruvchingiz bo‘lishi mumkin. Chunki tirik ekanmiz, har qanday orzuni ro‘yobga chiqarishga imkon bor.

**Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati;**

1. Adabiyot, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun dasrlik-majmua. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent – 2017.
2. kutubxonachi.uz.
3. gigafox.ru.
4. kun-uz.com.
5. uz.m.wikipedia.org.